

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 167 (1766), 2026-yil 19-avgust, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



YANGI O‘ZBEKISTONNING IQTISODIY QUDRATINI MUSTAHKAMLASHGA MUNOSIB HISSA QO‘SHAYOTGAN VATANPARVAR TADBIRKORLAR SHAKLLANMOQDA

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xorazm viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni Xiva shahrida tadbirkorlar bilan uchrashuv o‘tkazdi.



Davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti yangi O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining barqaror mexanizmiga aylandi. Gap bu yerda faqat mamlakatimiz ishbilarmolari bilan ochiq muloqotning muntazamlik kasb etgani, Tadbirkorlar kuni arafasida ular bilan uchrashuv o‘tkazish an‘anaga aylangani, ya’ni ushbu jarayonning institutsionallashtirishida emas. Bu yerda asosiy jihat — tadbirkorlar bilan muloqot asosida qabul qilinayotgan qarorlar, ular asosida yaratilgan yangi biznes muhiti va uning iqtisodiy samarasidir.

Zotan, besh yil oldin boshlangan ushbu ochiq muloqot natijasida jamiyatimizda tadbirkorlikka qiziqish ortdi. Ishbilarmon doira vakillarining bu jarayon ortga qaytmassligiga ishonchi mustahkamlandi. Shu tariqa tadbirkorlik faoliyati barqaror rivojlanib, ulkan yutuqlarga erishilmoqda. Bunda 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qilinib, biznesga to‘siq bo‘lgan minglab

masalalarga yechim berilgani ayni muddao bo‘ldi.

Natijada o‘tgan davrda biznes uchun ajratilgan kredit portfeli qariyb 3 karra oshib, 450 trillion so‘mga yetdi. Tadbirkorlar 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalandi.

Shu bois, yurtimiz ishbilarmolari mazkur uchrashuvni intiqlik bilan kutadigan bo‘ldi. Zero, Xiva muloqotida ilk bor tuman studiyalaridan ham 25 mingga yaqin tadbirkor ishtirok etgani fikrimiz tasdiq‘idir.

Prezidentimiz oltinchi ochiq muloqot avvalida yurtimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga faol hissa qo‘shayotgan 1 million 200 minglik biznes hamjamiyatini Tadbirkorlar kuni bilan tabrikлади.

Mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlardan biri — yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, yurtdoshlarimizni uzoqqa bormay, mahallasining o‘zida daromadli qilish ekani qayd etildi.

Agar 2021-yilda o‘tkazilgan ilk uchrashuvda koronavirus pandemiyasi bilan bog‘liq eng dolzarb cheklovlarni bartaraf etish, davlat bilan xususiy sektor o‘rtasidagi ishonchni tiklash masalasi ochiq muloqotning asosiy mazmunini tashkil etgan bo‘lsa, yildan yilga tadbirkorlik rivoji bilan bog‘liq qamrov ham, dolzarblilik ham ortib bordi.

— Bugun tadbirkorlarimiz “biznesni boshlash” bosqichidan “kapitalni ko‘paytirish” bosqichiga o‘tyapti, — dedi davlatimiz rahbari.

Darhaqiqat, tadbirkorlar bilan ilk uchrashuvdan keyin oradan o‘tgan besh yil mobaynida korxonalarining asosiy kapitalga investitsiyasi 3 karra oshdi. Sanoati 100 million dollardan ziyod tumanlar soni 66 tadan 116 taga, xizmatlar hajmi 1 trillion so‘mdan ortiq tumanlar esa 41 tadan 152 taga ko‘paydi. Milliy brendini yaratgan, mamlakat bo‘ylab filiallar ochgan tadbirkorlar safi kengaydi.

Qayd etilganidek, so‘nggi yillarda Xorazmda ham tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar



yaratildi. Pirovardida qisqa muddatda viloyatga 4 milliard dollarlik xorijiy investitsiya kiritilib, 10 mingga yangi quvvat ishga tushirildi. Bugun viloyat iqtisodiyotida kichik biznes ulushi 72 foizni tashkil etmoqda, eksportda esa 81 foizga yetdi.

Jahondagi murakkab vaziyatga qaramay, joriy yilning birinchi yarmida O‘zbekiston iqtisodiyoti 8,5 foiz o‘tdi. Xalqaro reyting agentliklari mamlakatimizning suveren kredit reytingini yaxshiladi.

Davlatimiz rahbari bu natijalar, eng avvalo, tadbirkorlar bilan yelkama-yelka amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi ekanini qayd etdi.

Muloqotda tadbirkorlar ko‘targan masalalar asosida beshta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha yangi tashabbuslar e‘lon qilindi.

Birinchi yo‘nalish — tadbirkorlik uchun barqaror o‘shish trayektoriyasini ta‘minlash.

Ta‘kidlanganidek, so‘nggi yillarda banklar kredit portfelida kichik biznesning

ulushi 45 foizdan 63 foizga oshgan. Birinchi yarim yillikning o‘zida kichik va o‘rta biznesga 76,5 trillion so‘m resurs ajratilgan. Shu faktning o‘ziyoq kichik biznesga qaratilayotgan e‘tiborning nechog‘liq ko‘lamdor ekanini ko‘rsatadi. Bundan ruhlangan kichik tadbirkorlar o‘rta biznesga, undan “champion”ga aylanishga intilmoqda. Shiddatli davr va shunga munosib jo‘shqin sur‘at olgan tadbirkorlik muhiti kichik va o‘rta biznes uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochish zaruratini tug‘dirmoqda.

Shu ma’noda, kichik va o‘rta biznes uchun yangi tizim yaratilishi ayni muddao bo‘ldi. Unga ko‘ra, “Kredit xizmatlari yagona raqamli portali” orqali tadbirkor bitta ariza bilan banklarning takliflarini olishi mumkin. Muhimi, endi biznes boshlayotganlar uchun 5 milliard so‘mgacha kreditni onlayn rasmiylashtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Tadbirkorlarning ishi barqaror rivojlanishi uchun esa biznesning har bir bosqichiga mos yaxlit ekotizim yaratiladi. Jumladan, yangi tadbirkorlar “Biznes start”, ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yganlar “Biznes lift”, yangi o‘shish bosqichiga o‘tayotganlar esa “Biznes yuksalish” dasturlari orqali taraqqiyot kafolatini olishi mumkin.

Dasturlar tadbirkorlarga ishni to‘g‘ri tashkil etish, ishonchli biznes muhitida barqaror rivojlanish imkonini beradi. Masalan, “Biznes start” doirasida tadbirkorlar sun‘iy intellekt yordamida loyiha va kredit hujjatlarini tayyorlash, hisobot yuritishni o‘rganadi. Ayni paytda tayyor biznes-reja va 200 million so‘mgacha garovsiz kredit berish yo‘lga qo‘yiladi.

— Tadbirkorga kredit berish emas, uni birinchi qadamidan katta biznesga aylangunicha boshidan oxirigacha qo‘llab-quvvatlaydigan kompleks tizim yaratamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Davomi 3-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING TADBIRKORLAR BILAN OCHIQ MULOQOT SHAKLIDA O‘TKAZILGAN UCHRASHUVDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlı vatandoshlar! Hurmatli tadbirkorlar, biznes vakillari, muloqot ishtirokchilari!

Sizlar bilan ilm-fan, hunarmandchilik, savdo va tadbirkorlik markazlaridan biri bo‘lgan ko‘hna Xorazm zaminida uchrashib turganimdan mamnunman.

Bugungi anjumanda ilk bor tuman studiyalaridan ham 25 mingga yaqin tadbirkorlar ishtirok etmoqda.

Fursatdan foydalanib, sizlarni, yurtimiz iqtisodiy qudratini mustahkamlashga faol hissa qo‘shayotgan 1 million 200 ming nafardan iborat butun O‘zbekiston biznes hamjamiyatini Tadbirkorlar kuni bilan tabriklayman.

Besh yil oldin sizlar bilan ochiq muloqot o‘tkazish bo‘yicha an‘anani boshlaganimiz — biznesga to‘siq bo‘lgan minglab masalalarga yechim berdi, bu borada 84 ta qonun, 861 ta farmon va qaror qabul qildik. Nima uchun? Tadbirkorlarimizga sharoit yaratib, yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish, odamlarimizni uzoqqa bormasdan, mahallasining o‘zida daromadli qilish uchun.

O‘tgan davrda biznes uchun ajratilgan kredit portfeli qariyb 3 karra oshib, 450 trillion so‘mga yetdi, tadbirkorlarimiz 650 trillion so‘mlik soliq va bojxona imtiyozlaridan foydalandi. Ko‘plab biznes vakillari xorijiy banklardan o‘z loyihalariga mustaqil ravishda 1 milliard dollar jalb qildi. Bu — sizlar zabt etgan yana bir ulkan marra.

Bugun tadbirkorlarimiz “biznesni boshlash” bosqichidan “kapitalni ko‘paytirish” bosqichiga o‘tyapti. Besh yilda korxonalarimizning asosiy kapitalga investitsiyasi 3 karra ko‘paydi.

Birinchi ochiq muloqotga kirishganimizda sanoatdagi ulushi 100 million dollardan oshgan tumanlar 66 ta edi. Hozir ularning sonini 116 taga yetkazdik. IT, fintex va boshqa servis sohalari juda tez o‘sayotgani uchun xizmatlar hajmi 1 trillion so‘mlik marradan o‘tgan tumanlar 152 ta bo‘ldi. Yetakchi xalqaro marketpleyslar bilan ishlayotgan korxonalar 3,5 mingga yetdi. O‘z biznesini mahallada boshlagan va yurtimiz bo‘ylab o‘nlab filiallariga ega bo‘lgan tadbirkorlar 550 tadan, milliy brendini yaratganlar esa 300 dan oshdi.

So‘nggi yillarda tadbirkorlarimiz uchun mis, oltin, metall prokat, polietilen, PVX, kaolin, kaustik soda kabi xomashyolar bo‘yicha taklifi ko‘paytiraymiz. Natijada elektrotexnika, qurilish materiallari, farmatsevtika, to‘qimachilik, mebelsozlik kabi ko‘plab sohalarda “katta sakrash” qilishga erishdik.

Elektromobil, polimer va maishiy kimyo, “yashil” energetika, zargarlik sanoati sohalari “yo‘qdan bor bo‘ldi”, desam, fikrimga qo‘shilasizlar. BYD, ADM Jizzakh, Sirdaryodagi Asaka motors kabi zamonaviy avtomobil zavodlari qurilgani bu — sohaga yangi kompetensiya va texnologiya olib kirdi. Qoraqalpog‘iston, Navoiy, Chirchiq, Jizzax va Farg‘onadagi kimyo klasterlarida yuqori qo‘shilgan qiymat beradigan 40 ta yangi quvvatni ishga tushirdik.

Shu o‘rinda islohotlarimizni qo‘llab-quvvatlab, hududlarga katta-katta sarmoya kiritayotgan xorijiy hamkorlarimizga ham rahmat aytaman.

Qadrlı do‘stlar! Xorazm viloyatiga qisqa davrda 4 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilindi, bu yerda 10 mingga yangi quvvat ishga tushirildi. “Hazorasp” maxsus iqtisodiy zonasi va 31 ta sanoat zonasini tashkil etdik.

Tuproqqal‘a va Yangiariq tumanlarida jami 275 megavattli elektr stansiyalar barpo qilingani korxonalarini barqaror energiya bilan ta‘minlashga xizmat qilyapti.

Alohida qayd etmoqchiman, viloyat iqtisodiyotining 72 foizini kichik biznes yaratyapti. Eksportda kichik biznesning ulushi bo‘yicha Xorazm mamlakatimizda 1-o‘ringa chiqdi. Umuman, logistika janjiridan uzoq, tabiiy resurslari cheklangan bu diyorda so‘nggi yillar kichik va o‘rta biznesda chinakam o‘shish davri bo‘ldi.

Hududda yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida: haftalik aviareyslar sonini 16 tadan 102 taga, temir yo‘l qatnovini 8 tadan 41 taga ko‘paytirdik; Toshkent — Xiva tezyurar poyezdi qatnovini yo‘lga qo‘yidik, 35 kilometrli yangi Urganch — Xiva zamonaviy avtomobil yo‘li ham ishga tushirilyapti; 25 gektar maydonda “Arda Xiva” turistik majmuasi bunyod etildi. Tadbirkorlarning o‘zi ham 7 ming o‘rinli 331 ta mehmonxona va mehmon uylarini barpo qildi.

Mana shular evaziga bu yil Xorazmga 3 million xorijiy sayyoh kelishi kutilmoqda.

Xivada yana bir katta majmua — ko‘plab mehmonxona, savdo va ko‘ngilochar obyektlarni o‘z ichiga olgan “Sahro yulduzi” turistik kompleksini bunyod etamiz.

Bir so‘z bilan aytganda, bugungi kunda Xorazm tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar markaziga aylanib bormoqda.

Hurmatli tadbir ishtirokchilari!

Jahondagi vaziyat qanchalik murakkab bo‘lmasin, o‘tgan yarim yilda iqtisodiyotimiz 8,5 foizga o‘tdi. Nufuzli Fitch va Moody’s xalqaro reyting agentliklari mamlakatimiz suveren kredit reytingini bir pog‘ona yaxshiladi. Jahon bankining investitsiya va ishbilarmonlik muhiti to‘g‘risidagi hisobotida O‘zbekiston yetakchi davlatlar qatoridan joy oldi.

Bu — avvalo, siz, hurmatli tadbirkorlarimiz bilan yelkama-yelka turib amalga oshirayotgan islohotlarimiz samarasi desam, to‘g‘ri bo‘ladi.

Biz tadbirkorlar manfaatlarini ko‘zlab, bu yil kooperatsiya, davlat xaridi, standart, oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, urbanizatsiya kabi sohalarda institutsional o‘zgarishlar qildik. Birgina natija: “Milliy sanoat zanjiri” yo‘lga qo‘yilgani uchun shu yilning o‘zida xususiy korxonalar yirik davlat kompaniyalaridan 4 trillion so‘mlik kooperatsiya buyurtmalarini olishga erishdi.

Strategik korxonalar “kelajak loyihalari” dasturi doirasida mahalliyashtirish uchun 650 dan ziyod yangi mahsulot ro‘yxatini e‘lon qilgani — tadbirkorlar uchun qo‘shimcha 1 milliard dollarlik bozor yaratdi.

Soliq ma‘murchiligini tadbirkorlarning o‘shishiga hamohang tarzda soddalashtirib boryapmiz. Yaqinda qo‘shilgan qiymat solig‘iga o‘tish chegarasini 1 milliard so‘mdan 5 milliard so‘mga oshirdik. Bu — 600 ming kichik biznes vakiliga katta dalda bo‘ldi.

Kafe va restoranlarga qo‘shilgan qiymat solig‘idan 100 milliard so‘m “keshebek” sifatida qaytarildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari uchun qo‘shilgan qiymat solig‘ining “nol” stavkasi belgilangani hisobiga 400 milliard so‘m fermerlarning o‘zida qoldi.

Shu yilning o‘zida: Qozog‘istonda 11 turdagi qurilish materiallari importiga qo‘yilgan cheklov bekor qilindi; Turkmaniston bilan ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan o‘zaro bojsiz savdo rejimini yo‘lga qo‘yidik; Iordaniya bilan 150 turdagi, Pokiston bilan 88 turdagi, Eron va Afg‘oniston bilan 34 turdagi mahsulot bo‘yicha imtiyozli savdo bitimlari tuzildi. Mo‘g‘uliston, Birlashgan Arab Amirliklari, O‘mon, Malayziya, Singapur, Indoneziya, Misr, Hindiston bilan ham shunday kelishuvlar bo‘yicha ishlayapmiz.

Iqtisodiyotning o‘shishiga katta turtki beradigan ko‘plab megaloyihalarni amalga oshirayapmiz: Jizzaxda — atom elektr stansiyasi, Olmaliqda — to‘rtinchi misni boyitish fabrikasi, Toshkent — Samarqand, Toshkent — Andijon yo‘nalishida yangi zamonaviy avtomobil yo‘llari, Xorazmda — ekologik aviayoqilg‘i majmuasi, Surxondaryoda — 940 gektar maydonda zamonaviy issiqxona, Yuqori Chirchiqda — Yangi Toshkent aeroporti qurilmoqda.

Bu yil qiymati 27 milliard dollar bo‘lgan 105 ta yangi sanoat va infratuzilma loyihalari boshlanadi. Bundan tashqari, barcha hududlarimizda jami 3 million aholi uchun yangi massivlar barpo etyapmiz.

Bunday yirik loyihalarda o‘z mahsuloti va xizmati bilan ishtirok etmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarimiz uchun xorijiy investorlar bilan tengma-teng sharoit yaratib beramiz.

Yaqinda transport-logistika sohasidagi tadbirkorlarga yuk mashinalarini import qilishda boj va utilitatsiya yig‘imini olib tashladik. Bularga qo‘shimcha qilib, mahalliy operatorlarga xalqaro tashuvlar uchun vagon taqdim etishda qo‘shilgan qiymat solig‘ini “nol” stavkaga tushiramiz.

Tadbirkorlarimiz asosiy hamkor davlatlarning portlaridan foydalanishi uchun sharoit yaratyapmiz. Xususan, kelgusi yili Gruziyaning Poti portida quvvati 500 ming tonna bo‘lgan logistika markazini ishga tushiramiz. Anakliya porti loyihasi bo‘yicha ham hamkorlarimiz bilan amaliy ishlarga kirishdik.

Olot, Termiz, Yangiyo‘l, Ohangaron tumanlari va Xonobod shahrida yirik transport-logistika markazlarini tashkil etamiz. Bu — tadbirkorlarimiz uchun tranzit yuklari hajmini 25 foizga oshirish, logistika eksportini 3,5 milliard dollarga yetkazishga zamin bo‘ladi.

Kelgusi yili Toshkent xalqaro moliya markazi va “Enterprise Uzbekistan” xalqaro raqamli texnologiyalar markazini ishga tushiramiz. Bu markazlar xalqaro bozorlarga jadal kirib borish, 20-25 milliard dollar kapital, yangi bilim va texnologiya olib kelish imkoniyatini yaratadi.

Qadrlı tadbirkorlar!

Endi tadbirkorlar ko‘targan masalalar bo‘yicha yangi tashabbuslarni aytam.

Birinchi yo‘nalish — tadbirkorlik uchun “barqaror o‘shish trayektoriyasi”ni ta‘minlashdan iborat.

Davomi 2-betda

4

2026-yil 19-avgust, 167-son

“

O‘zbekistonda 2020-yilda kambag‘allik darajasi 23 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yillar davomida yuqorida ta’kidlangan tizimli islohotlar orqali 11 foizga va undan ham pastroq foizga tushirildi.

”

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

XALQ VA DAVLAT BIRLIGI

YOXUD O‘ZBEKISTONNING YUKSALISH DAVRI

news

official

uznews

uznews

uznews

uznews

Shuningdek, 2025-yil futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi “FIFA” Jahon chempionatiga yo‘llanma olgani va joriy yil Shimoliy Amerika davlatlarida o‘tkazilgan mundialda ishtirok etgani bu O‘zbekistonning mustaqillik davrida futboldagi eng katta yutug‘i bo‘ldi. O‘zbekiston bu yutug‘i bilan Markaziy Osiyodan Jahon chempionatiga chiqqan birinchi mustaqil davlatga aylandi.

Bu tarixiy onlami faqat sportchilarning kuchi emas, balki butun jamiyatimizning umummilliy g‘alabasi deyish o‘rinlidir. Zero, qaysi hududdan bo‘lishidan qat‘i nazar, barcha yagona O‘zbekiston nomi bilan hamohang bo‘ldi va Vatan bayrog‘ini yuksaltirish maqsadida barcha bir jamoaga birlashdi.

Shu bilan birga, 2022-yil Hindistonning Chinnay shahrida o‘tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekiston erkaklar terma jamoasi chempionlikni qo‘lga kiritdi. Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov kabi yosh grossmeysterlarimiz o‘zlarining ulkan natijalari orqali intellektual salohiyati tengsiz ekanini namoyon etdi.

To‘rtinchidan, turli sinovli davrlarda xalqimiz o‘zining birdamligini ko‘rsatganini alohida e‘tirof etish joiz. Jumladan, 2020-yilda butun dunyo singari O‘zbekiston ham koronavirus pandemiyasi bilan yuzlashib, katta inqirozli holatlarni boshidan kechirdi. Bunday og‘ir vaziyatda turli qiyinchiliklarga qaramay qisqa vaqt ichida maxsus shifoxonalar qurildi, “Saxovat va ko‘mak”, 1197 qisqa raqamli qo‘ng‘iroq markazlari va Volontyorlik platformalari, “Milliy taomlar karvoni”, “Ruhiy birdamlik”, “Mahalliy sanoatning tezkor safarbarligi” kabi umummilliy harakatlar orqali ehtiyojmand oilalar ko‘llab-quvvatlandi, minglab shifokorlar va ko‘ngillilar jamoalari tuzilib, o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib xalq uchun birlashdi. Bunday harakatlarni mustaqillik yillarida shakllangan demokratik va huquqiy jamiyatning eng oliy natijasi bo‘lmish fuqarolik birdamligi deya e‘tirof etish mumkin.

Xalosa o‘mida shuni ta’kidlash joizki, aynan inson qadrlining oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi, jamiyatning majburiy mehnatdan ozod qilinishi, odil sudlov hamda Ombudsman institutlari orqali xalqning huquqiy himoyasi kuchaytirilishi ochiq va erkin muhiti shakllantirdi. Yuqorida tilga olingan ilm-fan, ta’lim va sportdagi tarixiy zafarlari ana shu huquqiy va strategik yo‘lining amaliy natijasidir hamda bu yutuqlar bugungi kunda yangilangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida belgilangan yanada ulkan marralar uchun mustahkam zamin bo‘ladi.

Bu ulkan va tarixiy yutuqlar faqat davlat yoki xalqning bir tomonlama harakati emas, balki ikki tomonning hamjihatlikdagi harakatlari mahsulidir. Chunki yuqoridagi ta’kidlangan har bir soha va ulardagi yutuqlarda davlatning ham, xalqning ham o‘ziga yarasha katta o‘rni va mehnati borligi yaqqol ko‘rinib turadi. Umuman, hozirda erishilayotgan barcha yutuq va natijalar o‘zaro ishonch va hamjihatlik samarasidir va bu yanada mustahkamlanib bormoqda.

Shu o‘rinda buyuk bobomiz Amir Temurning quyidagi hikmati yodga tushadi: “Boshsiz mamlakat jonsiz tanaga o‘xshaydi. Bejon tanning ahvoli vayronlikka yaqindir”.

Tarix va bugungi kun ko‘rsatib turibdiki, yurtning farovonligi adolatli va xalqparvar yo‘lboshchiga bevosita bog‘liq. Chindan ham bugun davlatimiz rahbari olib borayotgan oqilona siyosat, tinimsiz zahmat va Vatan ravnaqi yo‘lidagi tizimli islohotlar tufayli jamiyatimiz hur, mahallalarimiz osoyishta, mamlakatimiz tinch va obod. Bu esa mustaqilligimizning eng oliy ne‘matidir.

Sherzod ZOKIROV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi, Sevara MIRALIYEVA, institut tayanch doktoranti

Birinchi davr: 1991-2016-yillar — milliy davlat poydevorini qurish, suverenitet asoslarini shakllantirish va dastlabki taraqqiyot yo‘lini belgilab olish bosqichi bo‘ldi.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan barcha o‘zgarishlarning debochasi va islohotlarning bosh manbai — 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi hisoblanadi. Asosiy qonun davlat qurilishining uchta muhim ustunini, ya‘ni hokimiyatlar bo‘linishi, inson huquqlari ustuvorligi hamda xususiy mulk daxlsizligini belgilab berdi. Mamlakatdagi keyingi barcha islohotlar aynan mana shu uchta tamoyilni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirildi.

Umuman, 1991-2016-yillar O‘zbekistonning suveren huquqiy poydevori yaratilgan davr bo‘ldi. Bu jarayon Konstitutsiya qabul qilinishi bilan boshlanib, undagi tamoyillar asosida avval ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, tashqi siyosatda “yangi ishonch muhiti” hamda xalq va davlatning haqiqiy hamjihatligi yo‘lga qo‘yilgan yangi yuksalish davri sifatida tarixga kirdi.

2016-yildan keyin davlatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda 2023-yilda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, qolaversa, 2026-yilda “maqsad — g‘oyasini Konstitutsiyada qat‘iy belgilashni ta’kid etdi.

Prezidentimizning loyihani kabinetlarda emas, bevosita xalq bilan bamaslahat yozish haqidagi talabi natijasida aholidan 220 mingdan ortiq takliflar tushdi va “Yangilanayotgan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi bu — xalqimizdir” degan g‘oya amalda o‘z isbotini topdi. Shu tariqa keng umumxalq muhokamaridan so‘ng 2023-yilning 30-aprelida bo‘lib o‘tgan referendumda yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi.

Bu bilan, birinchidan, avvalgi yillarda yaratilgan huquqiy baza endilikda qog‘ozdan amaliyotga ko‘chib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar sezilarli darajada yangi bosqichga ko‘tarildi. Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan xususiy mulk daxlsizligini real hayotda ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatiga davlatning assosiz aralashuvlarini keskin cheklash hamda investoirlarni himoya qiluvchi yangi institutlar, xususan, Biznes-ombudsmaning joriy etilishi erkin bozor munosabatlariга keng yo‘l ochdi.

Ma‘lumki, 2016-yilgacha bo‘lgan davrda “kambag‘allik” degan atama rasmiy doiralarda deyarli tilga olinmas va umuman, bu muammoning borligi yashirlardi. Xalq va davlat birligining misoli sifatida davlat o‘z xatosini tan olishni o‘rgandi, bu muammoga tik qarab, unga

“

“O‘zbekistonda 2020-yilda kambag‘allik darajasi 23 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yillar davomida yuqorida ta’kidlangan tizimli islohotlar orqali 11 foizga va undan ham pastroq foizga tushirildi.

”

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

XALQ VA DAVLAT BIRLIGI

YOXUD O‘ZBEKISTONNING YUKSALISH DAVRI

news

official

uznews

uznews

uznews

uznews

Shuningdek, 2025-yil futbol bo‘yicha O‘zbekiston milliy terma jamoasi “FIFA” Jahon chempionatiga yo‘llanma olgani va joriy yil Shimoliy Amerika davlatlarida o‘tkazilgan mundialda ishtirok etgani bu O‘zbekistonning mustaqillik davrida futboldagi eng katta yutug‘i bo‘ldi. O‘zbekiston bu yutug‘i bilan Markaziy Osiyodan Jahon chempionatiga chiqqan birinchi mustaqil davlatga aylandi.

Bu tarixiy onlami faqat sportchilarning kuchi emas, balki butun jamiyatimizning umummilliy g‘alabasi deyish o‘rinlidir. Zero, qaysi hududdan bo‘lishidan qat‘i nazar, barcha yagona O‘zbekiston nomi bilan hamohang bo‘ldi va Vatan bayrog‘ini yuksaltirish maqsadida barcha bir jamoaga birlashdi.

Shu bilan birga, 2022-yil Hindistonning Chinnay shahrida o‘tkazilgan 44-Butunjahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekiston erkaklar terma jamoasi chempionlikni qo‘lga kiritdi. Nodirbek Abdusattorov, Javohir Sindorov kabi yosh grossmeysterlarimiz o‘zlarining ulkan natijalari orqali intellektual salohiyati tengsiz ekanini namoyon etdi.

To‘rtinchidan, turli sinovli davrlarda xalqimiz o‘zining birdamligini ko‘rsatganini alohida e‘tirof etish joiz. Jumladan, 2020-yilda butun dunyo singari O‘zbekiston ham koronavirus pandemiyasi bilan yuzlashib, katta inqirozli holatlarni boshidan kechirdi. Bunday og‘ir vaziyatda turli qiyinchiliklarga qaramay qisqa vaqt ichida maxsus shifoxonalar qurildi, “Saxovat va ko‘mak”, 1197 qisqa raqamli qo‘ng‘iroq markazlari va Volontyorlik platformalari, “Milliy taomlar karvoni”, “Ruhiy birdamlik”, “Mahalliy sanoatning tezkor safarbarligi” kabi umummilliy harakatlar orqali ehtiyojmand oilalar ko‘llab-quvvatlandi, minglab shifokorlar va ko‘ngillilar jamoalari tuzilib, o‘z hayotini xavf ostiga qo‘yib xalq uchun birlashdi. Bunday harakatlarni mustaqillik yillarida shakllangan demokratik va huquqiy jamiyatning eng oliy natijasi bo‘lmish fuqarolik birdamligi deya e‘tirof etish mumkin.

Xalosa o‘mida shuni ta’kidlash joizki, aynan inson qadrlining oliy qadriyat darajasiga ko‘tarilishi, jamiyatning majburiy mehnatdan ozod qilinishi, odil sudlov hamda Ombudsman institutlari orqali xalqning huquqiy himoyasi kuchaytirilishi ochiq va erkin muhiti shakllantirdi. Yuqorida tilga olingan ilm-fan, ta’lim va sportdagi tarixiy zafarlari ana shu huquqiy va strategik yo‘lining amaliy natijasidir hamda bu yutuqlar bugungi kunda yangilangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida belgilangan yanada ulkan marralar uchun mustahkam zamin bo‘ladi.

Bu ulkan va tarixiy yutuqlar faqat davlat yoki xalqning bir tomonlama harakati emas, balki ikki tomonning hamjihatlikdagi harakatlari mahsulidir. Chunki yuqoridagi ta’kidlangan har bir soha va ulardagi yutuqlarda davlatning ham, xalqning ham o‘ziga yarasha katta o‘rni va mehnati borligi yaqqol ko‘rinib turadi. Umuman, hozirda erishilayotgan barcha yutuq va natijalar o‘zaro ishonch va hamjihatlik samarasidir va bu yanada mustahkamlanib bormoqda.

Shu o‘rinda buyuk bobomiz Amir Temurning quyidagi hikmati yodga tushadi: “Boshsiz mamlakat jonsiz tanaga o‘xshaydi. Bejon tanning ahvoli vayronlikka yaqindir”.

Tarix va bugungi kun ko‘rsatib turibdiki, yurtning farovonligi adolatli va xalqparvar yo‘lboshchiga bevosita bog‘liq. Chindan ham bugun davlatimiz rahbari olib borayotgan oqilona siyosat, tinimsiz zahmat va Vatan ravnaqi yo‘lidagi tizimli islohotlar tufayli jamiyatimiz hur, mahallalarimiz osoyishta, mamlakatimiz tinch va obod. Bu esa mustaqilligimizning eng oliy ne‘matidir.

Sherzod ZOKIROV, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti bosh ilmiy xodimi, Sevara MIRALIYEVA, institut tayanch doktoranti

Birinchi davr: 1991-2016-yillar — milliy davlat poydevorini qurish, suverenitet asoslarini shakllantirish va dastlabki taraqqiyot yo‘lini belgilab olish bosqichi bo‘ldi.

O‘zbekistonda amalga oshirilgan barcha o‘zgarishlarning debochasi va islohotlarning bosh manbai — 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi hisoblanadi. Asosiy qonun davlat qurilishining uchta muhim ustunini, ya‘ni hokimiyatlar bo‘linishi, inson huquqlari ustuvorligi hamda xususiy mulk daxlsizligini belgilab berdi. Mamlakatdagi keyingi barcha islohotlar aynan mana shu uchta tamoyilni amaliyotga tatbiq etishga yo‘naltirildi.

Umuman, 1991-2016-yillar O‘zbekistonning suveren huquqiy poydevori yaratilgan davr bo‘ldi. Bu jarayon Konstitutsiya qabul qilinishi bilan boshlanib, undagi tamoyillar asosida avval ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, tashqi siyosatda “yangi ishonch muhiti” hamda xalq va davlatning haqiqiy hamjihatligi yo‘lga qo‘yilgan yangi yuksalish davri sifatida tarixga kirdi.

2016-yildan keyin davlatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi hamda 2023-yilda “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi, qolaversa, 2026-yilda “maqsad — g‘oyasini Konstitutsiyada qat‘iy belgilashni ta’kid etdi.

Prezidentimizning loyihani kabinetlarda emas, bevosita xalq bilan bamaslahat yozish haqidagi talabi natijasida aholidan 220 mingdan ortiq takliflar tushdi va “Yangilanayotgan Konstitutsiyamizning chinakam muallifi bu — xalqimizdir” degan g‘oya amalda o‘z isbotini topdi. Shu tariqa keng umumxalq muhokamaridan so‘ng 2023-yilning 30-aprelida bo‘lib o‘tgan referendumda yangi tahrirdagi Konstitutsiya qabul qilindi.

Bu bilan, birinchidan, avvalgi yillarda yaratilgan huquqiy baza endilikda qog‘ozdan amaliyotga ko‘chib, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar sezilarli darajada yangi bosqichga ko‘tarildi. Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan xususiy mulk daxlsizligini real hayotda ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatiga davlatning assosiz aralashuvlarini keskin cheklash hamda investoirlarni himoya qiluvchi yangi institutlar, xususan, Biznes-ombudsmaning joriy etilishi erkin bozor munosabatlariга keng yo‘l ochdi.

Ma‘lumki, 2016-yilgacha bo‘lgan davrda “kambag‘allik” degan atama rasmiy doiralarda deyarli tilga olinmas va umuman, bu muammoning borligi yashirlardi. Xalq va davlat birligining misoli sifatida davlat o‘z xatosini tan olishni o‘rgandi, bu muammoga tik qarab, unga

Nuqtayi nazar

“ODIL SUDLOV – 2030” STRATEGIYASI

INSON QADRINI ULUG‘LAYDI

“

“Raqamli sud” konsepsiyasi barcha sudlarda to‘laqonli ishga tushirilib, sud majlislarining 100 foizini audioyozuv orqali qayd etish va Oliy sud axborot tizimlari foydalanuvchilarining sonini kamida 5 baravar oshirish ham rejalashtirilmoqda.

”

“Adolat bo‘lmagan joyda davlat ham bo‘lmaydi”, deydi antik davr allomalaridan biri. Bugun davlat boshqaruvida adolatni ta‘minlash sud tizimini takomillashtirishdan boshlanadi. Shu bois, mamlakatimiz yetakchisi keyingi yillarda ushbu sohani tubdan o‘zgartirib, sud tizimini raqamlashtirish va faoliyatida shaffoflik, ochiq-oshkoralikni ta‘minlash orqali adolat tamoyillarini mustahkamlab kelmog‘da.

Yaqinda davlatimiz rahbari sud-huquq islohotlarining natijalari va sohadagi ustuvor vazifalarni muhokama qilish yuzasidan sud tizimi rahbarlari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Muloqotda sudlar faoliyatini 2030-yilga qadar rivojlantirishga qaratilgan “Odil sudlov — 2030” strategiyasi ko‘rib chiqildi hamda Prezidentimizning strategiya loyihasini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan tegishli farmoni imzolandi.

Strategiyada belgilangan 57 vazifa ijrosi sud-huquq tizimidagi juz‘iy kamchiliklarni bartaraf etgan holda qog‘ozbozlik va ortiqcha ovoragarchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Aholining qulay va erkin, adolat tamoyillarini ta‘minlaydigan sud idoralari xizmatidan foydalanishiga zamin hozirlaydi.

Jumladan, hujjatga ko‘ra, quyi sudlar qarorlarini qayta ko‘rib chiqish xolisligini oshirish maqsadida 2027-yil 1-iyuldan 5 ta

hududlararo sud tashkil etiladi. Bu bir sudning o‘z qarorlarini o‘zi qayta ko‘rib chiqishi amaliyotiga chek qo‘yadi. Shuningdek, markazdan olis hududlarda yashovchi fuqarolarining adolat izlab poytaxtga kelib, ortiqcha mablag‘i va vaqtini sarflashining oldini olishda juda muhim.

“Ko‘cha-ko‘yda, mayda bezorilikdan jabr ko‘rdim, firibgarlarga ishonib pulimni ololmayapman” yoki “falon pulga sotib olgan maishiy texnikam nosoz chiqdi”, deya noligani kabi ko‘p uchratamiz. Ularning aksariyatidan nega sudga murojaat qilmaganini so‘raganimizda “Shaharga qatnashning o‘zi bo‘ladimi? Buning ustiga ariza berishdagi qog‘ozbozlik undan ham qimmatga tushadi”, deb javob beradi.

Strategiyadagi vazifalar ijrosi odil sudlovni aholiga yanada yaqinlashtiradi hamda fuqarolarning murojaat qilishini osonlashtirib, ishlarning o‘z vaqtida samarali ko‘rib chiqilishini ta‘minlaydi, — deydi Fuqarolik ishlari bo‘yicha Mirzo Ulug‘bek tumanlararo sudi sudyasi Feruza Jo‘rayeva. — Unga ko‘ra, kundalik hayotiy muammolarni hal etuvchi, odamlarning ishi ko‘proq tushadigan sudlar fuqarolik ishlari bo‘yicha sudlar ekanini inobatga olib, ularni xalqqa yaqinlashtirish maqsadida 2030-yilga

Yana bir qulaylik shuki, sudga berilgan ariza boshqa sudga tegishli bo‘lsa, fuqaroga qaytarilmaydi. Sudning o‘zi uni tegishli idoraga yuboradi. Arizada juz‘iy kamchilik aniqlangan taqdirda sud uni bartaraf etishda fuqaroga faol ko‘maklashadi. My.sud.uz portali va mobil ilovasi takomillashtirilishi, murojaatchilarning eshikma-eshik yurilishining oldini olib, elektron shaklda murojaat berish imkoniyatini kengaytiradi.

“Raqamli sud” konsepsiyasi barcha sudlarda to‘laqonli ishga tushirilib, sud majlislarining 100 foizini audioyozuv orqali qayd etish va Oliy sud axborot tizimlari foydalanuvchilarining sonini kamida 5 baravar oshirish ham rejalashtirilmoqda.

Sohadagi yangiliklardan yana biri sud apparati xodimlari uchun maxsus xizmat kiyimining joriy etilishidir. Bu fuqarolarga sud xodimlarini oson tanib olish, sud jarayonlarida jamoatchilik nazoratini o‘rnatish, xodimlarning kasbiy mas‘uliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Hujjat ijrosi bilan yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lanib, fuqarolarning sud tizimi orqali huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari ta‘minlanishiga erishiladi. Sohobqiron Amir Temur “Temur tuzuklari” asarining ayni shu masalaga bag‘ishlangan oltinchi tuzugida aytgandek, adolat va insof bilan insonlar roziligiga erishiladi. Ushbu islohotlarning zamirida ham aholini rozi qilish, erkin va farovon hayotni ta‘minlash maqsadi turibdi.

Sanjar ESHMURODOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dunyoda Soʻz aytmoq saodatini bergan
matonatli zotlarga tahsin va tasannolar boʻlsin.
Demakkim, Soʻz matonatdir. “Soʻz matonati” desa ham boʻlar.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga



Ushbu “Soʻzboshi”ning sarlavhasi avval boshda “Soʻz aytish saodati” tarzida qoʻyilgan edi. Darhaqiqat, bu koʻhna va yangi ochunda, koʻklamda boychechak va qoʻzigullarning ildiz yorishi samovotga qadar – yulduzlargacha yetib borsa-yu, “globallashuv” zamonidagi zamindoshlarning buni ilgʻamasa, qiziq ekan. “Ildiz” bilan “yulduz”ning egizak kelishini qarang. Soʻz aytish qabohat boʻlgan zamonlar ham kechdi. Soʻz jarohat olgan, Soʻz jasoratga aylangan yillarimiz bor. Men soʻzlar umimonda qolib ketdim. Soʻz toʻfonida desa ham boʻlgay. Dunyoni suv bosgan desam, yoʻq-yoʻq, soʻz bosib yotgan ekan.



Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston xalq shoiri

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor roʻyobga chiqarilgan ushbu kutilmagan yirik loyiha ona yurtimizda maʼrifat va adabiyotga koʻrsatilayotgan ulkan gʻamxoʻrlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning soʻz sanʼatiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining chinakam amaliy ramziga aylandi...

Buni qarangi, mazkur adabiy va endi-da, yemirilmas abadiy obidaning “100 jildlik” degan yozuvi zamiroda tarixiy bir sir yashiringanday. Uning bunyodga kelmogʻi uchun yuz yillardan ham koʻproq hukmronlik qilgan mustabid tuzumlaru ne-ne yolgʻon toʻlimotlar barbod boʻlmogʻi shart va zarur ekan.

Mustaqillik shamlari pipirab, istiqlol omborlarida uch kunlik bugʻdoyimiz qolgan ogʻir sinovli kunlarni ham boshdan oʻtkazishga toʻgʻri keldi. Ranj-u amalar, oʻkinchlar-u oʻtinchlar ham koʻp boʻldi. Oʻy va xayollarda, ong va tafakkurimizda qandaydir ishonchsizlik, noumidlik va tushkunlik asta davom etayotganday edi goʻyo...

Va kutilmagan bu daʼvat, porloq va munavvar bu gʻoya: 100 jildlik “Turkiy adabiyot durdonalari”. Tarixda boʻlmagan gap. Goʻyo barcha qavmlarimiz — tildoshlar-u dildoshlarimiz ham porloq shu lahzalarni yuz yillar “miq” etmay kutib oʻtirganday. Istibod bilan Istiqlol jimlik boʻyicha ham zimdan kuch sinashayotganday boʻlib koʻringan bir holatda haqiqatan moʻjiza roʻy berdi. Davlatimiz

“Soʻz latofati”ni asta varaqlasangiz,
aziz ustozimiz oʻzining yaqin doʻsti, qozoq
xalqining yana bir atoqli shoiri va tilshunos
adibi Oʻljas Sulaymonovning “Код слова”
 (“Soʻzning qulf-u kaliti”) asari-yu “1001
soʻz” lugʻat kitobi bilan qilgan qiziq
muloqotlarigacha zavq bagʻishlaydi.

rahbari, ha, aynan bizing Prezidentimiz tomonidan olamshumul adabiy gʻoyaning olamshumul minbardan turib baralla oʻrtaga tashlanishi, avvaliga anjumanning bevosita ishtirokchilari boʻlib oʻtirgan “manaman” degan davlatlarning yoʻlboshchilarini hayratda qoldirganday boʻldi.

Koʻzlangan niyat, maqsad va muddao qalb-qalblariga yetib borgach, umid va armonlarimiz ayon boʻlgach esa anglashilmovchilik onlari tez tugab, olqish va qarsaklar yangragan edi. Muhtasham davra ahlining — arboblaru ayonlarning yuz va qiyofalarida shunday bir eʼtirof va xulosa mujassam edi goʻyo: “Qarang-a, shuncha yillar indamay yurgan ekanimizda-a? Kitob bilan ham, adabiyot bilan ham olqish olsa boʻlar ekan-da-a?...”

Oʻsha kunlardan boshlab, aynan oʻsha nurlil onlardan buyon kitob va kitobxonlik bizing Prezidentimiz timsolida dunyo minbariga chiqdi.

Davlat rahbarlari bir-birlariga kitob tuhfa qiladigan boʻldi. Yoʻlboshchimiz sharofati bilan bu ezgu amal umummilliy hodisadan

umumbashariy, davlatlararo yuksak insoniy anʼanaga aylanib qoldi.

Keyingi xalqaro uchrashuvga Turkiya jumhurboshqoni, muhtaram Rejeb Tayyip Erdogʻan janobi oliylari ustoz Erkin Vohidovning “Oʻzbekim” qasidasini jonli tilda yoddan aytib kelgani butun turkiy dunyoga ovoza boʻlib ketdi.

Faxr va gʻurur bilan aytish mumkinki, biz Prezidentimiz siyosida kitob bilan, maʼrifat bilan ham jahongirlik ilmidan xabardorligimizni yana bir karra olam ahliga namoyon etmoqdamiz.

Navoiy bobomiz ham buni tasdiqlab turibdi: *Ne mulk ichraki bir farmon yibordim, Aning zabitiʼga bir devon yibordim.*

Dunyo boshqonlari lol-u hayratda: “Manas” botirlaru Yunus Emro hazratlari olam minbarlariga chiqib ketdi. Hazrat Maxtumlul bilan Fuzuliy boboning devonlarini koʻring — zamon olampanohlari davrasida qoʻlma-qoʻl boʻlganlarini!

Mana, hozirgina yana bir xalqaro yangi xushxabar keldi: AQSHning Pensilvaniya shtati Filadelfiya shahri, undan keyin Nyu-York shaharlarida zamonamizning taniqli siyosatshunosi Qudratilla Rafiqovning “Millat Shavkati” kitobi taqdimoti katta zavq va hayjon bilan boshlanib, shunday baland ruhda muvaffaqiyat bilan davom etayotgan ekan. Dunyo davlatlari qurol-yarogʻ tarqatayotgan, jangovar raketalar bilan olam tinchligiga tahdid solayotgan sertahlikka, algʻov-dalgʻov bir paytda — biz kitob va maʼrifat, nur va ziyo tarqatmoqdamiz. Dunyoni egzulik egallasin deb. Dunyoda insoniylik, insonparvarlik zavol topmasin deb.

Johil, mugʻambir dunyo bizga savol berayotir: “Siz kim tomon, kimlar tomon?” deb. Jahlingiz chiqadimi axir?!

Biz javob berayotirmiz: “Bizlar xalqimiz tomon, vatanlarning, ellar-elatlarning gullab-yashnashi tomon”, deb. Biz tinchlik va omonlik tomondamiz. Biz — farzandlarimizning baxt-u

kamoli tomonimiz deb. Keling, gaplashaylik. Tillashaylik. Soʻzlashaylik deb. “Dunyo — tijorat bilan, muros-a-yu madora bilan oboddir”, demishlar bizingn ulugʻlarimiz. Bu hikmatlar muqaddas kitoblardan iqtibos keltirilganini ham unutmashimiz kerak. Demakkim, bu yorugʻ dunyo bilim bilan, maʼrifatning nur-u ziyosi bilan yanada munavvarroqdir! Yakun shulkim, demak, dunyo — ilm-u maʼrifat bilan obood va mukammalroqdir degimiz keladi-da!

Yer yuzi tilsimotlarga, havas va hayratlar, ajoyib va gʻaroyib taxmin hamda tashlarga liq toʻla. “Oʻzbek boʻl yozuvchilariga maza, — degan edi bir qardosh shoir doʻstimiz. — Adabiyotni yaxshi koʻradigan Prezidentingiz bor. Qalam ahliga eʼtibor zoʻr. Yangi va yangi muhtasham binolar, tap-tayyor boshpanalaru oq-oydin xiyobonlar! Ijod uylari-yu ijod maktablari, sanatoriylar, unvonluru qator-qator ordenlar! Oʻz-oʻzidan osmondan tushmaydiku bular! Yana nima kerak, qarsillatib yozish kerak! Vaqt oʻtib ketaveradi. Avj pardalarda, baland pardalarda Insonni kuyilash kerak. Gurillab, lovillab zamonnay yozish kerak. Zamon solnomasini yaratish kerak! Vatanni



yoʻzish kerak. Yozganda ham faqat yonib yozish kerak!...”

Bular jiddiy gaplar edi. Havas va eʼtirof barobarida eʼtiroz va oʻkinch, daʼvat va hayqiriq ham edi u soʻzlar...

Ustoz Erkin Vohidovning “Soʻz latofati” kitobining turk tilida tayyorlangan nashriga soʻzboshi soʻralganida, oʻsha lahzalarda kutilmagan xushxabardan soʻng shu bahonada taxminan shunday oʻy-xayollar namoila band etgan edi. Sal esankiraganida, “Soʻz latofati”ga-ya, soʻz zargari sanalmish ustoz Erkin Vohidovning kitobiga-ya?!” qabilidagi ishtihoblar koʻngildan kechgani ham ayni haqiqat.

Va yana koʻngilningmi, ong yo tafakkurningmi xilvat bir kunjagida ustozning “Inson” qasidasidagi yakuniy satrlari ham dudama pichoq tigʻlariday sanchilib, zirqirab turardi: “Ey sen Erkin, sen bukun, yozding dilingdan bir tugun: Sen kim-u, ne dahri dunyo? Biyron oʻzing, nodon oʻzing!...”

Bundayin donishmandona lufu latofat qayda-yu, biz qayda? Ustozimiz bor-yoʻgʻi diling bir tugunini yozibdlar, bir tugunginani ochibdlar, xolos. Eh-he, bizga, biz kabi donoyu nodonlarga yoʻl boʻlsin!...

Shu bois, gapni uzoq-yaqin tarixdan, yana ham aniqrogʻi, “Turkiy adabiyot durdonalari” majmuasidan boshlaganimiz besabab emas edi, albatta.

Avvaliga ikki ogʻiz maʼlumot: ustozimizning “Soʻz latofati” kitobi benihoyat sirli-sehrli, koʻrkam va chiroyli kitob boʻlgan. Bundan ikki yil oldin jonkuyar olim, professor Almaz Ulvi xonim tomonidan Ozarbayjonda ham nashr etilgan. Gʻoyat nozik did, nazokat va zarofat bilan bitilgan ushbu Soʻznomaga soʻz yozish boshda osonday tuyulgan boʻlsa-da, Choʻlpon hazratlari aytganday, “boshimni zoʻr ishga berib qoʻyganim”ni keyin anglab yetdim.

Avvalambor, ushbu turkcha nashrning bor yumush va tashvishlariga kayvonilik qilayotgan “Turksoy” tashkilotiga, uning jonkuyar va behalovat rahbari, taniqli adib, Qirgʻiz xalq yozuvchisi Sulton Rayev ogʻamizga va albatta, matarjimlar Avazxon Umar hamda Jahongir Demir singari zahmatkash insonlar mehnatiga tahsin va tashakkurlar aytmoq joiz. Sulton ogʻa olamshumul adib, taniqli jamoat arbobi Chingiz Aytmatovning sanoqli, ammo suyuqli shogirdlaridan biri.

Ishda ham, ijod va ijtimoiy faoliyatda ham taʼlim va tarbiyani ulugʻ ustozidan olganligi tahsinga sazovor. Eʼtiqod va xalqparvarlikda ham Chingiz Aytmatov ibrat boʻlgan. Qutlugʻ boʻlsin deymiz, buyursin deymiz.

Boshqa gapni aytmoqchi edim: bor-yoʻgʻi sakkiz-oʻn yillar avval ushbu tashkilotning oʻzi tugul, nom-u nishoni ham bizga yaqin

yoʻlmas edi. Oʻzbekimdan faxr etib, “Oʻzbekim”ni qoyilmaqom qilib yozgan shoirini ham, hofizini ham sahnaga chiqarmay qoʻygan sartaʼqiq va dilgir bir kunlar edi. “Itfixorimiz” dardigu, ustoz Abdulla Oripov holidan hech kim koʻrmasin deb berkinib, yashirincha xabar olardik. “Xabar olganday” boʻlardik.

Bugun endi mutlaqo yangi zamon. Yangi Oʻzbekiston asoschisining oʻzi eʼtirof etganday: “Boʻlar ekan-ku!...”

Orta qaytmas islohotlar zamoni deydi buni.

Bizga Farangiston Prezidenti Emmanuel Makron janobi oliylarining tashrif chogʻi Prezidentimiz hamrohligida Samarqandda, Registon maydonini sayr qilib yurgandagi hayrat va hayajonini ichga sigʻdirolmay aytgan gaplari, aniqrogʻi, eʼtirof hayqirigʻi behad maʼqul kelgandi.

Makron janoblari sof oʻzbek tilida: “Yashasin Oʻzbekiston va Fransiya!” debon mehr-muhabbatini jonli ijroda, farangcha maqomda izhor etganida, butun Registon maydoniyu minoralar porlab-charaqlab ketganday boʻlgan edi. Bu birgina shaxsning emas, balki bugungi kibor Ovruponing ochiq va aniq eʼtirofi, yangi Oʻzbekistonning yangi siyosati bilan tanlagan yoʻlini bani bashar koʻzi oʻngida qoyil qolib, tan olishi edi.

Yana bir ajib va gʻaroyib holatni — bir-biriga mos va mutanosib kelgan, bir paytning oʻzida, bir soniya ichida ikki koʻngildan kechgan ikki oʻxshash oʻymi, mulohazanimi aytib oʻtmak boʻlmas. Gap shundaki, biz “Turksoy” tashkilotidan “Soʻz latofati” toʻgʻrisidagi xushxabarni olgan ayni oʻsha lahzalarda, buyuk qozoq shoiri va maʼrifatparvari Abay Qoʻnonboyev tugʻilgan kun 10-avgust — tavallud sanasi munosabati bilan muhtaram zotning muhtasham haykali poyiga gullar, gulgumbarlur qoʻyib boʻlib, tadbirming badiiy qismini boshlamoqda edik. Abay boboning umri oxirida bitgan soʻnggi bitiklari — hajmi kichikkina, ammo maʼrifiy-tarbiyaviy ahamiyati, mazmun-mohiyati esa odamzodga qiyomatga qadar yetib ortadigan buyuk asari “45 qora soʻz” nomi bilan maʼlum va mashhur “Abay nasihatnomasi” (“Vasiyatnoma” desa ham boʻladi) haqida gapirayotib, endigina ushbu baytni iqtibos keltirayotgan joyimiz edi:

Oʻladi desa boʻladimi, oʻylanglar-chi, Orqasida oʻlmaydigan Soʻz qoldirgan.
(Soʻzma-soʻz tarjima qilgan Nosir Fozilov).

Oʻsha tigʻiz va shoshqin kelgan damlarda taniqli turk adibi va olimi, jamoat arbobi doktor Kemal Yavuz Ataman afandining “Men tanigan Oʻzbekiston” kitobi taqdimotiga ham vaqt topib, toʻplanishga ham ulgurgan edik. Kitob — Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga bagʻishlangan boʻlib, bugungi yangi Oʻzbekistonimizdagi

olamshumul islohotlar-u oʻzgarishlar, bularning bosh bunyodkori hurmatli Prezidentimizning qizgʻin va joʻshqin faoliyati xolis va begʻaraz bir adib tomonidan mehr va hayrat bilan tasvirlangan samimiy dil izhorlari edi.

Kitob taqdimoti chogʻida muhtaram Kemal afandi Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasiga faxriy aʼzolikka qabul qilinib, rasmiy guvohnoma tantanali tarzda egasiga topshirilgan pallalar gʻoyat hayajonli kechdi. Kemal janoblari kutmagan ekanmi, bexos koʻzlari girdida yosh gʻiltilladi, “labda tabassum-u koʻzda yosh bilan” (ustoz A.Oripov iborasi) guvohnomani qabul qilib oldi.

“Soʻz latofati”ni asta varaqlasangiz, aziz ustozimiz oʻzining yaqin doʻsti, qozoq xalqining yana bir atoqli shoiri va tilshunos adibi Oʻljas Sulaymonovning “Код слова” (“Soʻzning qulf-u kaliti”) asari-yu “1001 soʻz” lugʻat kitobi bilan qilgan qiziq muloqotlarigacha zavq bagʻishlaydi.

Boshqird shoiri Mustay Karim bilan boʻlgan gururlar ham oʻquvchini befarq qoldirmaydi. Alqissa, bu kitobni oʻqish kerak, uqish kerak. Hamma qulfu kalit, hamma tilsim-u tilsimot, hamma gap shunda!

Qirgʻiz xalqining buyuk namoyandasi Chingiz Aytmatov allaqachonlar oʻzbeklarning ham oʻz tugʻishgan farzandiga, oʻzbekning oʻz yozuvchisiga aylanib boʻlgan. Qardoshlik, doʻstlik, birodarlik bizning qon-qonimizda, bu mavzuda qiyos keltiramiz desak, qiyosimiz beqiyos, iqtibosimiz behisob... Eng muhimi — doʻstimiz, doʻstlarimiz behisob boʻlsin. Soʻzimiz, Ezgu Soʻzimiz, insonning insonligini koʻrsatadigan, insonni yuksaltiradigan yuksak soʻzimiz koʻp boʻlsin!

Ishonchimiz komilki, turk kitobxoni ustozimizning “Soʻz latofati”ni mutolaa qilib, momolarimiz tili bilan aytduga, bahra oladi. Rohatlanadi. Bunga shak-shubha yoʻq.

“Soʻz latofati”ning Turkiy dunyoga boshlangan safari bexatar, sayohati baxayr boʻlsin deymiz.

Razoltdan, qabohat-u jaholatdan, adovatdan, eng yomoni, kasofatdan, soʻz kasofatidan Yaratganning oʻzi asrasin! Soʻz — diyonat boʻlsin, hargiz xiyonat boʻlmasin. Balo-yu qazodan, halokat-u nadomatdan panoh bersin!

Xudoyim saxovatdan, sadoqatdan buyursin! Men shu elning, shu adabiyotning kamtarin bir vakili, qardozd bir ijodkori sifatida ayta olamanki, davlatimiz rahbarining “Jaholatga qarshi maʼrifat bilan!”, “Adabiyotimiz — hayot ham, najot ham yoʻq!”, “Adabiyot — xalqning yuragi” singari kitobxonlikka daʼvatlarini, daʼvatning oʻzigina emas, goʻyo olam ahliga qaratayotgan, nola-yu figʻon chekayotgan, ey odamzod, koʻzingni och, deya butun bir millatni, roʻyi zaminda yashayotgan odamiyatni ilm-u maʼrifatga chorlayotgan buyuk bir zotni, oʻz ona Vatani uchun jonini tikib, jahon maydoniga chiqqan fidoyi va xalqparvar mard va matonatli yetakchini koʻraman!

Boʻlmasa, bu kunlar qayda edi, bu davr-u davronlar qayerda edi?

Bugungi yosh avlod — farzandlarimiz, oʻgʻil-qizlarimizning tolei porloq ekan. Faqatgina havas qilish mumkin.

Demakkim, Soʻz — nainki latofat, nainki zarofat va nafosat, soʻz mehr-u muhabbat ham, bagʻrikenglik va muruvvat ham soʻz.

Soʻz — adolatlir. Soʻz latofati — soʻz sadoqati hamdir.

Bugun olamni hayratga solgan ulugʻvor soʻzlarimiz bor.

Islom sivilizatsiyasi markazi, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi — aytish mumkinki, buyuk ajdodlarimizning ilm-u maʼrifatiga, shu davr-u davronga mamlakat yetakchisining xalqimiz irdosini oʻzida mujassam etgan ulugʻvor niyatlar, Buyuk Soʻz obidalaridir.

Dunyoda Soʻz aytmoq saodatini bergan matonatli zotlarga tahsin va tasannolar boʻlsin. Demakkim, Soʻz matonatidir. “Soʻz matonati” desa ham boʻlar. Yashasin — mardlik. Yashasin — Matonat deymiz-da. Olam tinch boʻlsin, doʻstu yorlar salomat boʻlsin.

Yunus Emro hazratlari bundoq buyurmishlar:

“Biza diydor kerak, dunyo kerakmas!”. Oʻzbekda bundoq deydlar: “Mehrdan, diydordan ayirmasin!”.

“Yangi Oʻzbekiston” va “Правда Востока” gazetlari tahririyati” DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Qabulxona: (71) 233-56-33
Eʼlonlar boʻlimi: (71) 233-70-98

Tahririyatga kelgan qoʻlyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga “SHARQ” NMAK masʼul.

E-mail: info@yuz.uz
Be6-cafr: www.yuz.uz; (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan roʻyxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-846.
29305 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. Qogʻoz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon koʻchasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhih: Akbar Qarshiyeov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz koʻchasi, 85-uy